

OLIV TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI TAVSIFLOVCHI OMILLAR

Qudratova Gulzoda Mahmudovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasalari, raqobat, resurs, ta'lim, fan.

Annotatsiya

mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlari va ularning faoliyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek hozirgi raqamli transformatsiya davrida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar to'g'risida fikr yuritilgan hamda tegishli xulosa va takliflar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarini barqaror rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblangan xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "...xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu vazifalarni hal etishda xizmat ko'rsatish korxonalarini raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish hamda unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirish, mehnat unumdorligini oshirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Jahon ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv tizimlari samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan innovatsion mexanizmlar va vositalarni takomillashtirish, ta'limni moliyalashtirish manbalarini muassasa imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada mutaxassiliklar kesimida oliy ta'lim xizmatlariga talab va taklif muvofiqligini uyg'unlashtirish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyani moliyaviy o'zaro manfaatlarga ko'ra kengaytirish, resurs salohiyatini istiqbol parametrlariga ko'ra rivojlantirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyati va innovatsion rivojlanish mexanizmini takomillashtirish kabi ilmiy muammolarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida jahon andozalariga muvofiq ta'lim sifatini oshirish, oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, ilmiy salohiyatni mustahkamlash, "fan - ta'lim - ishlab chiqarish" integratsiyasini yangi pog'onaga kuchaytirish, ilmiy faoliyati samaradorligiga erishish, raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha dasturiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. "... Avvalo ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyani taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" Bu vazifalarni hal etishda ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta'lim

xizmatlari sifatini oshirishning ilmiyuslubiy asoslarini takomilastirish va samarali mexanizmlarini takomillastirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

Mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, aholi turmush darajasining yanada yaxshilanishi, shuningdek, zamonaviy kadrlarga bo'lgan talabning kun sayin ortib borishi aholining oliy ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirdi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, oliy ta'limning qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga yetgan. Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassalari oldiga juda katta vazifalarni qo'yadi, bozor qonuniyatlariga asosan talabning ko'payishi, shuningdek kuchli raqobat muhiti har bir oliy ta'lim muassasidan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shuningdek zamonaviy talablar asosida darslarni olib borish talabini keltirib chiqaradi. Davlat oliy ta'lim muassalari bilan bir qatorda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyat olib borayotganligi oliy ta'lim tizimida kuchli raqobat muhitini yaratishga sabab bo'ladi. Shu o'rinda raqobat va raqobatbardoshlik tushunchalariga aniqlik kiritib o'tishimiz kerak.

Raqobat umumijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar qatnashchilari o'rtasidagi yaxshiroq yashash sharoiti uchun bo'ladigan kurashni anglatadi.

Kembrij lug'atida raqobatga quyidagicha ta'rif berilgan: odamlar yoki korxonalar bir-birlariga qaraganda muvaffaqiyatliroq bo'lishga intilayotgan vaziyat. Masalan, bozorda ko'proq savdo qilish va yuqoriroq daromad olish.

Biznes lug'atida esa raqobat axborot ochiqligi, talab va taklif muvozanatiasosidagibozordagisubyektlarningo'zaro yaxshiroqnatijava muvofaqqiyat uchun kurashishi deb ta'rif berilgan. Xususan, sotuvchilar bozordagi katta ulush, foyda va savdoga erishish uchun raqobat-chilariga nisbatan eng yaxshi narx, sifat va servislarning kombinatsiyasini taklif qilish orqali erishishi mumkin.

Raqobat (iqtisodiyot) eng yaxshi sharoitlar va tijorat faoliyatining natijalariga erishish uchun bozor munosabati subyektlarining o'zaro kurashi. Endi raqobatbardoshlik tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, Respublika iqtisodchi olimlardan M.R. Boltaboyev o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida raqobatbardoshlikka quyidagicha ta'rif berganlar: "Raqobatbardoshlik – obyektning muayyan ehtiyojini shu bozorga olib chiqilgan eng yaxshi obyektlarga nisbatan qondirish darajasini belgilovchi xususiyatdir, raqobatbardoshlik – obyektning muayyan bozor sharoitlarida o'xshash tovarlarga nisbatan raqobatga bardosh bera olish qobiliyatidir".

Oliy ta'lim muassalari kadrlar tayyorlash, iste'molchilarga keng assortimentdagi ta'lim xizmatlarni, shuningdek, ilmiy-tadqiqot, innovatsion, maslahat, tajriba-sinov, konstruktorlik va boshqa xizmatlarni taqdim etishadi.

Iste'molchilar uchun qaysi omillar eng katta ahamiyatga ega ekanligini aniq bilish juda muhim, shuning uchun noaniqlik, xavf darajasini kamaytirish va yangi mijozlarni jalb qilish uchun so'rov o'tkazildi. Ushbu ma'lumotlarni to'plash uchun maxsus savollar ishlab chiqilgan va ma'lumotlar olingan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ma'lum bir oliy ta'lim muassasasining afzalligi to'g'risida qaror qabul qilishda eng muhim ta'sir ko'rsatiladigan xizmat narxidir (respondentlarning umumiy sonining 41%). Keyingi omil - ko'rsatilayotgan xizmat sifati (32%), keyin xizmat ko'rsatish darajasi (15%), oliy ta'lim muassasasining joylashgan joyi (7%) va respondentlarning atigi 5% boshqa omilni ko'rsatgan yoki so'rovnomaga javob bermagan.

Demak, so'rov natijasida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, yoshi va jinsi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, respondentlarning aksariyati, birinchi navbatda, ko'rsatilayotgan xizmatlar narxi va sifatini afzal ko'radi. Ushbu omillarga erishishda oliy ta'lim muassasasi muvaffaqiyatining kaliti yotadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki har bir oliy ta'lim muassasasi arzon va sifatli ta'lim xizmatini ko'rsatishi kerak. Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini baholash bir qancha izlanishlarni talb qiladi, chunki bu borada aniq bir o'lchovlar mavjud emas. Biz oliy ta'lim muassasalari

raobatbardoshligini baholashda mazkur oliygohlarning bitiruvchilari, ularning bugungi kudagi faoliyat sohasi, boshqaruvdagi ishtirokiga ko'ra tahlil qilish maqsadida bitiruvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini baholashni maqsad qildik. Mazkur so'rovnoma Google Forms platformasida onlayn tartibda o'tkazilmoqda. So'rovnoma quyidagi mazmundagi savollarni kiritganmiz:

- O'zingiz bitirgan oliy ta'lim muassasasi nomini belgilang
- O'zingiz bitirgan oliy ta'lim muassasasining Buxoro viloyatidagi raqobatbardoshligini 10 ballan necha ballga baholaysiz?
- Oliy ta'lim muassasasini tugatganingizga necha yil bo'lgan?
- Oliy ta'lim muassasasida tahsil olgan sohangiz (yo'nalish).
- Oliy ta'lim muassasasida tugatgan sohangiz bo'yicha ish yurityapsizmi?
- Boshqaruvdagi o'rningiz (yuqori bo'g'in – rahbariyat, o'rta bo'g'in, quyi bo'g'in) .
- Sizning bir oylik daromadingiz qanchani tashkil etadi? (agar sir bo'lmasa)
- Egallab turgan lavozimingiz doirasi (qo'l ostingizdagi xodimlar soni) nechta?

Yuqoridagi savollarga berilgan javoblarni umumlashtirish natijasida biz har bir oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarining bugungi faoliyati, ularning kasbiy va shaxsiy sifatleri asosida erishgan darajalari, boshqaruvdagi ishtiroki haqida aniq ma'lumotlarni qo'lga kiritamiz, natijalar asosida oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqishni maqsad qilganmiz.

Umumiy tarzda keskin raqobat muhitida har bir oliy ta'lim muassasasi nafaqat joriy maqsadlarga erishish uchun, balki aniq strategiyalar asosida kelajakdagi faoliyatini ham belgilashi muhimdir. Bu borada oliy ta'lim muassasalaridan quyidagi jihatlarga e'tiborli bo'lish talab etiladi:

- professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati, pedagogik mahoratini oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish maqsadida xorijiy Top universitetlar tajribasini o'rganib, amaliyotga joriy qilish, imkon qadar xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib, muntazam master klasslar, treninglarni olib borish;
- xodimlarning darsdan tashqari hamkorligi, inson munosabatlariga asoslangan boshqaruvning joriy qilinishi;
- talabalarning qabul jarayoni to'g'ri va shaffof tashkil qilinishi;
- talabalarga ilmiy bilimlarni berish bilan birga ularda shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida turli vebinar, trening, o'quvlar uyushtirish;
- muntazam ravishda har bir sohaning professional mutaxassislari bilan uchrashuvlar tashkil etish, bunday suhbatlar talabalarda ilm olishga, o'zining sohasiga yanada qiziqishiga muhim sabab bo'ladi;
- amaliyot bilan ilmiy bilimlarni muvofiqligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish korxonalarini va oliy ta'lim muassasalari o'rtasida amaliyot dasturlarini tuzishda doimiy hamkorlik qilish va amaliyot yakunida talabalar egallashi kerak bo'lgan kasbiy ko'nikmalarning aniq ro'yxatini shakllantirish;
- oliy ta'lim muassasalari o'zida turli qo'shimcha xizmatlar, qisqa muddatli kurslar, konsalting xizmatlarini ko'rsatishni yo'lga qo'yishi kerak;
- har bir oliy ta'lim muassasasi kelajakda samarali faoliyat olib borish uchun aniq marketing strategiyalar, ekonometrik tahlillar, prognozlar ishlab chiqishi kerak.

Taklif etilayotgan oliy ta'lim xizmatlari bilan mehnat bozori integratsiyalashuvini chuqurlashtirish mexanizmi oliy ta'lim muassasalarining marketing bo'limlari bilan ish beruvchi korxonalar va tashkilotlarning kadrlar bilan ishlash bo'limlarining funktsiya va vazifalarini bandlikka ko'maklashish markazlari orqali o'zaro muvofiqlashtirishga asoslanadi. Bunda korxonalar yoki tashkilotning kadrlar bilan ishlash bo'limi ish beruvchining faoliyati yo'nalishidan kelib chiqqan holda kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishi va muntazam ravishda (masalan, har kvartal, har yarim yil yoki har yili) ularni takomillashtirib borishi lozim bo'ladi. Ishlab chiqilgan lavozim bo'yicha nomzadlardan talab etiladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar ish beruvchining rasmiy web-sayti (agarda mavjud bo'lsa) va bandlikka ko'maklashish markazlariga taqdim etilishi lozim bo'ladi. Jumladan, ish beruvchining biron bir oliy ta'lim muassasasi bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lsa, shartnomada ko'rsatilgan bitiruvchilarni ishga qabul qilish punkti bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talabnoma oliy ta'lim muassasasi rahbariyatiga taqdim etilishi zarur bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'lim xizmatlari bozoridagi vaziyat sezilarli darajada o'zgardi va yanada murakkablashdi. Bozor o'zgarishlari jarayonida davlat oliy ta'lim muassasalarini markazlashtirilgan holda moliyalashtirish jarayoni qisqartirildi. Bu jarayon ta'limning tijorat shakllarini ishlab chiqish va budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini topish orqali amalga oshirilishi bilan xarakterlidir. Shu maqsadda malakali kadrlar tayyorlash xususiyatlari ta'lim xizmatlari bozorining bevosita ehtiyojlariga tobora ko'proq yo'naltirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Davronov, I. O., & Shadiyev, A. K. (2020). The cost-effectiveness of improving the quality of hotel services. *Academy*, (4), 40-42.
2. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia, 32.
3. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.
4. Shadiyev, A. (2022). FEATURES OF EVALUATING THE EFFECTIVENESS OF ACTIVITIES AT THE BUKHARA STATE UNIVERSITY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 23(23).
5. Базарова, М. С., Шарипова, М., & Нуруллоев, О. (2021). “РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ” ДА АҲОЛИНИНГ ИШ БИЛАН БАНДЛИГИ ХУСУСИЯТЛАРИ. САМАРҚАНД ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 482.
6. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).
7. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In *Инновационное развитие науки и образования* (pp. 122-132).
8. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
9. Supievná, B. M., & Fíruza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(7), 22-25.

10. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL INDICATORS OF BUSINESS EFFICIENCY IN COMPANIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 835-839.
11. Khalilov, B. (2023). FINANCIAL ELEMENTS OF BUSINESS STABILITY. *Modern Science and Research*, 2(12), 877-882.
12. Xalilov, B. (2024). ISSUES OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM OF SMALL BUSINESS ENTITIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 747-753.
13. Xalilov, B. (2024). COBB-DOUGLAS PRODUCTION FUNCTION AND ITS IMPORTANCE IN BUSINESS MATHEMATICS AND ECONOMIC ANALYSIS. *Modern Science and Research*, 3(1), 754-758.
14. Khalilov, B. (2024). FOREIGN EXPERIENCE IN PERSONNEL MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 974-978.
15. қизи Рахмонқулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. "Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
16. Raxmonqulova, N. O. (2022). THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON RESOURCE CONSUMPTION. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 476-480).
17. Raxmonqulova, N. (2024). MAIN PRIORITY DIRECTIONS OF REGIONAL ECONOMY DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 371-375.
18. Sh, Y. D., & Rakhmankulova, N. O. (2021). Risks in the Process of Digitalization of Business Activities. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 19-22.
19. Sh, Y. D., & Rakhmanqulova, N. O. (2021). Innovative approaches to the use of digital technologies in theeconomy. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 77-80.
20. Raxmonqulova, N. (2024). IMPORTANCE OF PERSONNEL MANAGEMENT IN BUSINESS DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(1), 13-17.
21. Jumaeva, Z. K., & Gafurov, E. O. (2022). Fiscal policy in ensuring the economic security of the state. In *Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности* (pp. 358-361).
22. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
23. Жумаева, З. К. (2024). Необходимость инновационного подхода в управлении организациями.
24. Jumayeva, Z. K., & Mamadjonov, G. N. (2024). Ways to Strengthen Financial Control in the Utilization of State Budget Funds. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(1), 61-64.
25. Жумаева, З. К. (2016). Эффективность стратегического управления предприятием. *Наука и образование сегодня*, (2 (3)), 60-62.
26. Жумаева, З. К. (2023). ПОТЕНЦИАЛ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ РЕГИОНА. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 333-337.
27. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *ЭКОНОМИКА*, 4, 455-458.

28. Rasulova, N. N., & Jumaeva, Z. K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 52-57.
29. Жумаева, З. К., & Расулова, Н. Н. (2019). Инновационный путь развития экономики Узбекистана. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 224-226.
30. Жумаева, З. К. (2019). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕГИОНАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ СИСТЕМ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ* (pp. 148-152).
31. Жумаева, З. (2023). МИРОВОЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ. *Nashrlar*, 318-321.
32. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
33. Sodiqova, N. (2024). TECHNOLOGY DISCOURSE AND THE POLITICAL ECONOMY OF NEW MEDIA. *Modern Science and Research*, 3(2), 376-384.
34. Sodikova, N. (2024). THE MAIN DIRECTIONS OF PROVIDING THE BUSINESS SECTOR WITH QUALIFIED PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 3(1), 133-139.
35. Sodiqova, N. (2024). TADBIRKORLIK SOHASINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Modern Science and Research*, 3(1), 123-132.
36. Toshov, M. (2024). STRATEGIC MANAGEMENT OF HIGHER EDUCATION. *Modern Science and Research*, 3(2), 461-468.
37. Toshov, M. (2024). PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 603-608.
38. Mirzabek, T. (2023). Marketing Kommunikasialari Tizimida Og'r Muloqotlar Xususiyatlari. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(14), 388-391.
39. Hakimovich, T. M. (2023). TA'LIM TIZIMI BOSHQARUVIDA PEDAGOGIK TAHLIL. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 415-420.
40. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
41. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
42. Abidovna, A. S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM.
43. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
44. Алимова, Ш. А., & Халимова, Д. Р. (2021). СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЙ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 340-344).
45. Alimova, S. (2023). THE CONCEPT AND TASKS OF A MODERN MANAGEMENT SYSTEM ENTERPRISE PERSONNEL. *Modern Science and Research*, 2(12), 1085-1090.
46. Alimova, S. (2024). THE IMPACT OF E-ACCOUNTING IN MODERN BUSINESSES. *Modern*

Science and Research, 3(1), 928-932.

47. Alimova, S. (2024). THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE PERSONNEL MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 385-390.
48. Abidovna, A. S. (2024). FORMATION AND DEVELOPMENT OF CAREER AS PERSONNEL TECHNOLOGY OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 327-332.
49. Alimova, S. A., & Khaitov, V. S. (2022). ON THE WAY OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN APPLICATION OF ELECTRONIC MARKETING STRATEGIES OPPORTUNITIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 303.
50. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.
51. Akbarovna, N. N., & Bahodirovich, X. B. (2023). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI.
52. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
53. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
54. Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
55. Ikromov, E. (2024). CLASSIFICATION OF LEADERSHIP STYLES IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Modern Science and Research*, 3(2), 615-621.
56. Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
57. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISHDA INNOVATSION SALOHIVATNING AHAMIYATI.
58. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE POTENTIAL IN INCREASING COMPETITIVENESS. *Modern Science and Research*, 3(1), 933-938.
59. Qudratova, G. (2024). THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITY IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Modern Science and Research*, 3(2), 1257-1261.
60. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. *Science and Education*, 4(7), 476-481.
61. Bustonovna, J. Z. (2024). IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI.
62. Bustonovna, J. Z. (2024). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINING BARQAROR O'SISHIDA SANOAT TARMOQLARINING AHAMIYATI.
63. Jumayeva, Z., & Nozimova, A. (2023). Palyno-Morphological Study of Allergenic Flora of Samarkand, Uzbekistan. *American Journal of Plant Sciences*, 14(5), 533-541.
64. Jumayeva, Z., Nurullayeva, N., Nozimova, A., Tursunboev, X., & Dosjanova, G. (2024). Dynamics and characteristics of allergenic plant pollen in the Republic of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 498, p. 02015). EDP Sciences.

65. Jumayeva, Z. (2024). IMPORTANCE OF INDUSTRIAL NETWORKS IN THE SUSTAINABLE GROWTH OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 3(2), 257-262.
66. Jumayeva, Z. (2024). THE MAIN WAYS OF EFFECTIVE WORK ORGANIZATION IN THE MODERNIZATION OF THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(2), 366-370.